


NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1- iyun holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

- I. Korxonalar va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxonalar va tashkilotlarning soni

2025- yil 1- iyun holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 19 970 tani tashkil etadi, shundan 17 443 tasi yoki 87,3 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalardir. 2024- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 94,8 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 93,3 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)

Yil	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2025	19970	17538	17443
2024	21071	18795	18700
2023	22518	20317	20206
2022	23742	21542	21420
2021	21332	19197	19112

Hududlar bo'yicha eng ko'p faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar Navoiy shahrida – 24,8 foiz, Karmana – 16,1 foiz, Qiziltepa – 13,1 foiz, Xatirchi – 10,2 foiz va Navbahor 9,8 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi G'ozg'on shahrida – 92,3 foiz va 92,3 foiz, Zarafshon shahrida – 89,4 foiz va 89,0 foiz, Karmana – 91,4 va 91,0 foiz, Navbahor – 89,9 va 89,7 foiz hamda Qiziltepa – 89,8 foiz va 89,7 foiz tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Navoiy shahar	4950	4326	4285
Zarafshon shahar	1322	1182	1177
G'ozg'on shahar	440	406	406
Konimex tumani	903	758	748
Qiziltepa tumani	2626	2359	2355
Navbahor tumani	1966	1767	1763
Karmana tumani	3210	2933	2920
Nurota tumani	1340	1133	1127
Tomdi tumani	460	368	366
Uchquduq tumani	721	591	586
Xatirchi tumani	2032	1715	1710

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025-yil 1-iyun holatiga 37,4 foizni (42,6 foiz va 42,8 foiz) tashkil etdi.



Korxonalar va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 12,6% (14,4% va 14,3%), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 10,6% (12,0% va 12,0%).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 60% dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2120	2096	2088
Sanoat	2526	2518	2488
Qurilish	1143	1130	1125
Savdo	7471	7471	7459
Tashish va saqlash	698	696	692
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1254	1250	1247
Axborot va aloqa	272	261	261
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	500	293	291
Boshqa turlar	3986	1823	1792

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-iyun holatiga ko'ra, 17 538 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalaridan 11 300 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	11300	64,4
Xususiy korxonalar	3313	18,9
Oilaviy korxonalar	2803	16,0
Aksiyadorlik jamiyati	15	0,1
Boshqalar	107	0,6

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 289 ta korxonalardan 113 tasi qo'shma korxonalar va 176 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar

2025-yilning 1-iyun holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 61 taga oshgan. Bu asosan, sanoat sohasidagi korxonalar sonining 112 tadan 165 taga, (o'sish 53 taga), qurilish sohasida 12 tadan 22 taga (o'sish 10 taga) hamda axborot va aloqa sohasida 11 tadan 14 taga (o'sish 3 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami:	289	113	176
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	18	7	11
Sanoat	165	78	87
Qurilish	22	3	19
Savdo	39	11	28
Tashish va saqlash	6	2	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	1	3
Axborot va aloqa	14	2	12
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4	1	3
Boshqa turlar	17	8	9

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 102 ta korxonalar bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 35,3 foizini tashkil etdi. Viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (14,9%), Turkiya (9,0%), Janubiy Koreya (5,2%) va Qozog'iston (4,8%) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami:	289	113	176
Xitoy	102	30	72
Rossiya	43	15	28
Turkiya	26	8	18
Janubiy Koreya	15	7	8
Qozog'iston	14	6	8
Eron	14	7	7
Tojikiston	9	3	6
Hindiston	8	6	2
AQSH	7	5	2
BAA	4	3	1
Belorusiya	4	2	2
Turkmaniston	3	1	2
Germaniya	2	-	2



IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama‘lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo‘yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo‘lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko‘rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma‘lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma‘lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma‘lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta‘minlaydi. Ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma‘lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- iyun holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama‘lumot uchun havolalar:

[Metama‘lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas‘uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo‘nalishida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas‘ul:

Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo‘limi

Ijrochi:

N. Xatamova
79 223-62-47

Maznil:

210100, Navoiy sh.,
Amir Temur ko‘chasi, 4
